

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024



No 7

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 348 sahifa.
E'lon qilishga 2024-yil 25-iyulda ruxsat etildi.*

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Musayeva Shoirazimovna, SamDu IS instituti professori
Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi
Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Ali Konak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya
Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyea Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Avtosanoat korxonalari marketing strategiyasini takomillashtirish yo'llari	16
Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Zayniddinova Umida Djalolovna	
Mamlakat raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda maxsus iqtisodiy zonalar omilidan foydalanish istiqbollari	26
Izbosarov Boburjon Baxriddinovich, Abdurasulov Ravshanbek Xotam o'g'li	
Mahalla institutini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning institutsional tahlili	32
Bahriddinov Viqorjon Akbar o'g'li	
Mamlakatimizda pillachilik biznesini rivojlantirish orqali mahsulot ishlab chiqarish va uni qayta ishlash holatining tahlili	37
Turgunov Odilbek Maripovich	
Etnografik turizmni tashkil etishning xorij tajribasi	41
I. Axmedov	
Xizmatlar sohasining milliy iqtisodiyotdagi rolini tahlil qilishning zamonaviy yondashuvlari	46
Xusanov Murodjon Sunnatullayevich	
Iqtisodiy o'sish tushunchasi va uning rivojlanish tarixi	54
Maksudov Avazbek Ulug'bek o'g'li	
Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni takomillashtirish asosida inson kapitalini rivojlantirish	59
Ubaydullaev G'ayrat Zuvaytovich	
O'zbekistonda aholi bandligini ta'minlashda oilaviy tadbirkorlikning o'rne	65
Baymanova Mavlyuda Djurayevna	
The Effect of Students' Financial Status on Academic Performance in Uzbekistan	70
Alimov Damirjon Odilovich	
Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatining o'rne	76
Jusupova Anjim Tansiqbaevna	
Insurance Mechanisms in Foreign Trade: Mitigating Risk and Facilitating Global Commerce	82
Sohibjamol Abirkulova	
Nodavlat umumiy o'rta ta'lim maktabning faoliyati samaradorligini aniqlashdainnovatsion usullardan foydalanish	87
Ustadjalilova Xurshida Aliyevna	
Qishloq xo'jaligi korxonalarida asosiy vositalar hisobi va auditi bo'yicha xorijiy tajribalar va ulardan respublikamizda foydalanish imkoniyatlari	92
Xojimurodov Zuxriddin Shukurullo o'g'li	
O'zbekiston Respublikasi budjetining shakllanishida egri soliqlarni undirishning fiskal samaradorligi	97
Abdulxayeva Shahnoza Muxammadiyevna	
Mamlakat sanoatining barqaror rivojlanishida energosamaradorlikning roli	104
J. J. Yaxshilikov	
Сравнительный анализ состояния сферы услуг в регионах Андижанской области	109
Мусабоев Рустам Алижонович	
Hududlarda aholi bandligini oshirish va kambag'allikni qisqartirishda ishlab chiqarish sanoatining o'rne (Qashqadaryo viloyati misolida)	114
Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li, Baxronov Baxriddin Najmiddinovich	
Banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatini takomillashtirish yo'llari	118
Ermatov Utkirbek Baxodirjonovich	



Развитие цифровой экономики в Узбекистане, ее плюсы и минусы	122
Раупова Мухлисахон Ибрахимжон кизи, Мамбетова Мадина Зоҳид кизи, Алижонов Малика Алижон кизи, Хакимова Нигора Бахтиёрвна	
Investment Management is an Important Factor of Economic Development.....	127
Yuldasheva G. A., Ziyayev Dilshodjon	
O'zbekistonda moliyaviy texnologiyalar sanoatining rivojlanish istiqbollari.....	130
Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li	
Davlat-xususiy sherikchilik asosidagi loyihalarni moliyalashtirish.....	136
To'irov Yunus Alomovich	
Operatsion faoliyatni boshqarishda strategiya tushunchasiga bo'lgan yondashuvlarning shakllanishi.....	143
Dedajanov Baxtiyor Nabijanovich	
Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlash.....	148
Xusniddinov Yorqinjon Muxiddin o'g'li	
Budjet tashkilotlarida pul mablag'lari nazorat qilishni rivojlantirish yo'llari.....	152
Alimardonov Muxammadi Ibragimovich, Djalilova Malika Shuxratovna	
QQS ma'murchiligining yevropa tajribasi.....	157
Bisenbayev Sharyar Kuanishbayevich	
O'zbekistonda soliq yukiga ta'sir etuvchi omillar tahlili	162
Nasimov Ravshanjon Azimovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida muqobil energiya vositalaridan foydalanib ma'lumot almashinish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalalari	170
Ashurov Azizbek Ergash o'g'li, Janzakov Bekzot	
Analysis of the theoretical foundations of sustainable economic development at regional level	175
Khudayorova Munira Omonboy kizi	
Soliq ma'murchiligida joriy etilgan jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirish yo'llari	182
Muxtorov Zokir Sayfulla o'g'li, Karimov Ilhom Anorboy o'g'li, Homidov Asrorbek Tohirjon o'g'li, Axmedova Shoxista G'ayrat qizi	
Sirdaryo viloyatining investitsiya muhiti zamonaviy rivojlanish tendensiyalari	187
Xolmurotova Diyoraxon Ibragimovna	
Transformatsiyalash jarayonida tijorat banklarining kreditlash faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	191
Razzoqov Bexzod Gofurovich	
Modern trends in assessing the impact of industrial development on the environment.....	196
Turg'unov Jasurbek Alimardon o'g'li	
Pul oqimlarini guruhlash mezonlari bo'yicha tasniflashni kengaytirish.....	202
Atamurodov Saidmurod Yaxyoevich	
Iqlim o'zgarishlari va uning iqtisodiy rivojlanishga ta'sirining ilmiy-nazariy tahlili	208
Ashrafjon Elov	
Soliqlarning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati	214
Abramatov Eldor Toshmamatovich, Alimov Abduraxon Alxamiddin o'g'li, Shodmonqulov Temurbek Ulug'bek o'g'li, Nurillayev Jasurbek Davronbekovich	
Tijorat banki daromadlari - moliyaviy barqarorlikni omili sifatida.....	218
Umarov Davron Shavkatovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxona barqarorligini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari	223
Masharipova Manzura Alimbayevna, Rahimov Mirjalol Sultonboy o'g'li	
Innovatsion yondashuvlar asosida chakana savdoni rivojlantirish yo'nalishlari.....	227
Saparova Mohira Alisher qizi, Abdullayev Ilyos Sultanovich	



Experience of foreign countries in youth labor market research	231
Asqarova Muhabbat Ibraximovna	
Xorij mamlakatlarida ijtimoiy tibbiy sug'urta badallari qiymatlarini taqqoslash	235
Umurzakova Mo'tabarxon Nodir qizi	
O'zbekistonda alkogol va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarilishi hamda realizatsiya qilinishi tahlili	241
Eshmatov Sirojiddin Tog'aymurodovich	
Oliy ta'lim muassasalarini xalqaro tasnifining vujudga kelishi ilg'or tajribalari	247
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
Анализ зарубежного опыта методологии оценки финансового потенциала развитых стран.....	253
Буранова Лола Вахобовна	



INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA CHAKANA SAVDONI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI

Saparova Mohira Alisher qizi

Urganch davlat universiteti Iqtisodiyot
yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar:

Abdullayev Ilyos Sultanovich

Urganch davlat universiteti,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Annotatsiya: Ushbu maqolada innovatsion yondashuvlar asosida chakana savdoni rivojlantirishning zaruriyati, mavjud imkoniyatlari, ushbu soha yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarning yondashuvlari va asosiy yo'nalishlari yoritilgan. Shuningdek, innovatsion yondashuvlarni hisobga olgan holda chakana savdoni samarali rivojlantirish yuzasidan taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Savdo, chakana savdo, tadqiqot, savdo tarmog'i, yondashuv.

Abstract: This article describes the need for the development of retail trade based on innovative approaches, available opportunities, approaches and main directions of research conducted in this field. Also, proposals and recommendations regarding the effective development of retail trade, taking into account innovative approaches, are highlighted.

Key words: Sales, retail, research, sales network, approach.

Аннотация: В данной статье описывается необходимость развития розничной торговли на основе инновационных подходов, имеющихся возможностей, подходов и основных направлений исследований, проводимых в этой сфере. Также выделены предложения и рекомендации по эффективному развитию розничной торговли с учетом инновационных подходов.

Ключевые слова: Торговля, розничная торговля, исследования, сеть продаж, подход.

KIRISH

Hozirgi vaqtda iste'molchilar o'z mahsulotlarini chakana bozorga bormasdan sotib olishni maqsad qilmoqdalar. COVID-19 pandemiyasi chakana savdo tarmoqlariga juda kuchli ta'sir qildi. Vaziyatni boshqarish uchun chakana sotuvchilar iste'molchilarni xarid qilish vaqtida xavfsiz his qilishlari uchun o'z operatsiyalarini o'zgartirish maqsadida xizmat ko'rsatishda innovatsiyalarning zarurligini his qildilar. Natijalar shuni ko'rsatadiki, xizmat ko'rsatish innovatsionligi chakana savdoni rivojlanishiga ijobiy ta'sir qilgan. Shuningdek, iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirishda mamlakatimizda savdo-sotiq aloqalarini rivojlantirish ustuvor yo'nalish bo'lib hisoblanadi. Bu borada sohani keng va barqaror rivojlantirishga qaratilgan bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-dekabrda "O'zbekiston Respublikasida chakana savdo qoidalariga qo'shimcha kiritish to'g'risida"gi 683-son qarori [1] qabul qilindi. Unga ko'ra, chakana savdo tarmoqlarida sotuvchi tomonidan oldi-sotdi shart-nomasini tuzishda barcha iste'molchilarga teng imkoniyatlarni yaratib berish lozimligi alohida ta'kidlangan. O'z navbatida, chakana savdoni rivojlantirish ma'lum tamoyil, tartib va qoidalar asosida amalga oshiriladi. Uning zamonaviy shakllarda amalga oshirilishi esa bevosita innovatsion texnologiyalardan foydalanishni hisobga olgan holda innovatsion yondashuvlarga asoslanadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Chakana savdoning shakllantirish va uning samarali rivojlantirish yuzasidan turli tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, Levi M., Veyts B.A. tadqiqotlarida chakana savdo iste'molchilarga sotiladigan va shaxsiy yoki oilaviy foydalanish uchun mo'ljallangan tovarlar va xizmatlarga qiymat qo'shadigan tadbirkorlik faoliyati majmuyi, deb talqin qilinadi [2].

Boshqa bir tadqiqotlarda chakana savdoning zamonaviy innovatsion shakli sifatida onlayn savdo kabi savdo shaklini taraqqiy qildirish tavsiya etiladi. Ya'ni, bu borada M.D.Beletskiy onlayn savdoning yillik o'sishi taxminan 30 foizga teng bo'lishi haqida ta'kidlab o'tadi [3]. Xizmat ko'rsatish innovatsiyasi chakana savdo firmalarining nisbiy jozibadorligini farqlash va yaxshilash uchun asosiy omil hisoblanadi [4]. Chakana savdo innovatsiyalarining besh xil turi aniqlangan: mahsulot, jarayon, marketing, tashkiliy va texnologik innovatsiyalar [5]. Ishlab chiqaruvchilar va yetkazib beruvchilar muhim innovatorlar roliga ega va distribyutorlar va ularning xizmat ko'rsatuvchi subyektlari o'rtasidagi hamkorlikni qiymat zanjirida adekvat integratsiyalashuv orqali kamaytirish innovatsiyalar uchun asosiy tashkiliy masala ekanligi ta'kidlangan. Shuningdek, chakana savdoning rivojlantirish, eng avvalo, uni amalga oshirishda faol ishtirok etuvchi xodimlarga bog'liqligi qayd etiladi. Jumladan, unga asosan, savdo xodimlari ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasidagi vositachilar sifatida qaraladi. Ular tovar assortimentini bilishi, uni talab darajasida saqlashi, sotishga qabul qilishda tovarlarni ekspertizadan o'tkaza olishi, ishlab chiqarish korxonalaridan olingan tovarlar sifatining xavfsizligini ta'minlashi shart [6].

Shu bilan birga tadqiqotlarda chakana savdo korxonalari innovatsion faoliyati va ilmiy-texnik ta'minotining haqiqiy holati hamda uni rivojlantirish imkoniyatlarini tahlilini amalga oshirmasdan turib, innovatsion strategiyasini ishlab chiqish, strategik maqsadlar va umumiy-iqtisodiy strategiyasini amalga oshirish kutilgan ijobiy natijani berish ehtimoli kamligi tadqiq qilinadi [7].

Ayrim tadqiqotlarda esa bevosita chakana savdo korxonalarining iste'mol bozori infratuzilmasi unsuri bo'lib, uning rivojlanishi, bir tomondan, iste'molchilarning turli tovarlar va xizmatlarga bo'lgan talabini to'laroq va sifatliroq qondirishga imkon berishi, ikkinchi tomondan, iste'mol bozorining samarali faoliyat yuritishiga xizmat qilishi ta'kidlanadi [8].

Mazkur tadqiqotlarning barchasi bugungi kunga kelib chakana savdo tarmog'ini keng rivojlanishiga xizmat qiladigan ilmiy yo'nalishlar bo'lib xizmat qilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda chakana savdoni rivojlanishini tadqiq qilishga qaratilgan tadqiqotning iqtisodiy tahlil, qiyosiy tahlil, monografik kuzatish, mantiqiy fikrlash, tizimli tahlil va abstraklashtirish kabi usullaridan samarali foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ma'lumki, chakana savdo tovarlarni sotib olingan holatda sotilgan miqdoridan qat'iy nazar, odatda, subyektning mijozlar bazasiga sotishdan iborat bo'ladi. Savdodan tashqari, chakana savdo faoliyati mijozning uyiga yetkazib berish va o'rnatishni ham qamrab olishi mumkin.

Darhaqiqat, chakana savdoning samarali rivojlanishi uni innovatsion yo'nalishlarini keng isloh qilish bilan bog'liq. Avvalo, innovatsion yondashuvlar asosida chakana savdo tarmog'ining tarkibi tovarlarni sotish va mijozlarga xizmat ko'rsatish maqsadida birlashgan savdo korxonalari yoki savdo bo'linmalari majmuidan iborat bo'ladi. Ushbu savdo tarmog'i tovarlar yetkazib berish bo'yicha markazlashtirilgan boshqaruv va nazorat, shuningdek, biznes jarayonlarini amalga oshirishning yagona strategiyasini ishlab chiqishni ta'minlaydi. Bundan tashqari, ushbu chakana savdo tarmog'i biznesning yagona va umumiy maqsadlari, vazifalari, missiyasi va barcha savdo birliklariga ega tovarlarning yagona assortimenti bo'lib hisoblanadi.

Mamlakatimizda chakana savdoning rivojlanishi uning o'sishida tizimli tarzda ta'minlanmoqda. Bu borada mamlakatimizda 2010–2023-yillarda amalga oshirilgan chakana savdo hajmining o'sishini hududlarda amalga oshirilgan chakana savdo-sotiqnlarni rivojlantirish borasida amalga oshirilgan islohotlar natijasida ko'rishimiz mumkin (1-jadval).



1-jadval. Mamlakatimizda 2010–2023-yillarda amalga oshirilgan chakana savdo hajmining o'sish sur'ati, foizda [9]

№	Hududlar nomi	2010- y.	2011- y.	2012- y.	2013- y.	2014- y.	2015- y.	2016- y.	2017- y.	2018- y.
	O'zbekiston Respublikasi	113.6	117.1	113.9	113.3	114	116	119.3	101.3	100
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	122.7	115.2	112.8	117.9	119.3	116.4	121.4	101.1	103.7
2	Andijon viloyati	107.9	117.5	112.8	115.4	113.4	115.2	117.5	100.4	101.3
3	Buxoro viloyati	107.7	121.9	114.5	114.2	115.9	115.9	118.8	100.5	100.2
4	Jizzax viloyati	121.8	127.2	116.8	117.8	115.5	118.8	119.2	99.3	92.5
5	Qashqadaryo viloyati	120.7	127.2	119.7	118.7	111.7	113.7	118.2	99.8	100
6	Navoiy viloyati	122.4	115.9	117.5	116.6	114.9	115.9	118.6	98.2	98
7	Namangan viloyati	114.4	119.8	111.3	115.2	112.4	116.2	121.9	101.7	97.8
8	Samarqand viloyati	122.3	118.9	121	114.2	116.2	116.4	120.3	100.7	101.2
9	Surxondaryo viloyati	122.7	119.3	112.5	117.5	115.7	117.8	118.8	101	101.6
10	Sirdaryo viloyati	121.2	116.1	112.6	105.7	114.7	118.5	124.1	100	99.1
11	Toshkent viloyati	107.3	123.1	113.3	109.3	113	116.4	117.1	100	93.4
12	Farg'ona viloyati	118.8	117.7	114.5	110.5	110.2	114.7	120.6	101.9	101.7
13	Xorazm viloyati	121.3	113.3	109.2	110.4	109.7	111.1	120.4	101.2	101.4
14	Toshkent shahri	106.9	109	110.9	110.5	115.4	117.6	118.1	103.9	102.2

Mazkur jadvalga asosan, O'zbekiston Respublikasi bo'yicha chakana savdoni o'sishi 2010-yilda 113,6 foizni tashkil etgan bo'lsa-da, 2023-yilda esa 110,5 foizni tashkil etgan. Shundan, ushbu yillarda mos ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasida 122,7 (108,2) foizga, Andijon viloyatida 107,9 (108,4) foizga, Buxoro viloyatida 107,7 (106,2) foizga, Jizzax viloyatida 121,8 (107,6) foizga, Qashqadaryo viloyatida 120,7 (108,9) foizga, Navoiy viloyatida 122,4 (110,8) foizga, Namangan viloyatida 114,4 (108,3) foizga, Samarqand viloyatida 122,3 (107,9) foizga, Surxondaryo viloyatida 122,7 (108,3) foizga, Sirdaryo viloyatida 121,2 (106,7) foizga, Toshkent viloyatida 107,3 (110,9) foizga, Farg'ona viloyatida 118,8 (112,3) foizga, Xorazm viloyatida 121,3 (107,6) foizga, Toshkent shahrida 106,9 (114,5) foizga teng bo'lgan.

Hisob-kitoblarga ko'ra, 2023-yildan 2010-yilga nisbatan mazkur ko'rsatkichning o'sishi O'zbekiston Respublikasida 2,7 foizga kamaygan. Hududlardan: Sirdaryo viloyatida 12,0 foizga, Qoraqalpog'iston Respublikasida 11,8 foizga, Samarqand viloyatida 11,8 foizga, Jizzax viloyatida 11,7 foizga, Surxondaryo viloyatida 11,7 foizga, Xorazm viloyatida 11,3 foizga, Navoiy viloyatida 9,5 foizga, Farg'ona viloyatida 5,5 foizga, Namangan viloyatida 5,3 foizga va Buxoro viloyatida 1,4 foizga kamaygan. Biroq, Qashqadaryo viloyatida 9,8 foizga, Toshkent shahrida 7,1 foizga, Toshkent viloyatida 3,4 foizga va Andijon viloyatida 0,5 foizga oshgan.

Jahon mamlakatlari statistikasiga murojaat qiladigan bo'lsak, so'nggi yillarda innovatsion yondashuvlar asosida chakana savdo tarmog'i AQShda keng taraqqiy etmoqda. 2019-yilda Amerikada elektron tijorat savdosi 601,7 mlrd. dollarni tashkil etib, bu 2018-yilga nisbatan qariyb 15 foizga ko'proqni tashkil etgan [10]. Ushbu o'zgarishning taraqqiyoti bevosita elektron tijorat brendlarining keng rivojlanishiga bog'liqdir. Bu borada shaxsiylashtirilgan va uzluksiz onlayn xarid qilish tajribasini yaratish bozorga kirish uchun zaruriy talab bo'lib qaraladi. Savdoni oshirish va mijozlarning uzoq muddatli sodiqligiga erishish uchun ko'pgina chakana sotuvchilar yangi texnologiyalarga murojaat qiladilar. Shulardan kelib chiqib, chakana savdoning innovatsion hozirgi holati 2020-yilda elektron tijorat korxonalari tomonidan amalga oshirilgan tendensiyalari bilan bog'liq. Bu borada 2020-yilda onlayn sotuvchilar e'tibor berishi zarur bo'lgan quyidagi tendensiyalar kuzatildi:

- shaxsiylashtirilgan xaridlar;
- sun'iy intellektning tovar autentifikatsiyasi;
- vizual qidiruv bilan xarid qilish;
- ovozli xarid qilish;
- chakana savdoda VR va AR texnologiyalari;
- robotlarning yuksalishi;
- mahsulot qaytarilishini kamaytirish.

Shuningdek, chakana savdoning samarali aloqalarini ta'minlashda zamonaviy xaridorlar xatti-harakatlarining quyidagi yo'nalishlardagi psixologiyasini alohida hisobga olish lozim, deb hisoblaymiz:

- yuqori sifatli xizmat evaziga qulay ma'lumotlarni o'zaro almashish;
- xaridlarning har bir bosqichida shaxsiylashtirilgan xizmatni joriy qilish;



- sifatli xizmat ko'rsatish uchun malakali xodimlarni xohlash;
- to'g'ri mahsulot mavjudligi asosida uni muhim deb hisoblash.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Innovatsion yondashuvlar asosida chakana savdoni rivojlantirish mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy siyosatning eng muhim yo'nalishi bo'lib qaralmoqda. Bu borada hududlarda chakana savdoning rivojlantirish tendensiyalarini tadqiq qilish, uning o'zgarish sabablarini aniqlash va asosiy holatini tahlil qilish eng muhim vazifa bo'lib qaralishi bejizga emas. Asosiy innovatsion yo'nalish chakana savdoda faoliyat olib boradigan korxonalar va mijozlarning mahsulotga bo'lgan xohish va qiziqishlarini aniqlash, ular uchun mahsulotlarni yangicha uslubda taqdim qilish, shuningdek, internet tizimiga asoslangan onlayn savdoning imkoniyatlarini baholash maqsadga muvofiqdir.

Chakana savdoga yangi innovatsion texnologiyalarni keng jalb qilish ham asosiy maqsad bo'lib qaralishi kerak. Bu borada mijozlarning chakana savdoni samarali amalga oshirishlari uchun ularga mahsulot reklamalarini ham targ'ib qilib borish lozim. Ular uchun onlayn savdoni qulay amalga oshirishlarini ta'minlaydigan mobil ilovalarni ichlab chiqish lozim. Shuningdek, innovatsion yondashuvlar asosida chakana savdoni rivojlantirish uchun bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish, xususan, sohaga oid qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarning ta'sirchanligini oshirish, soha bo'yicha yangi innovatsion yondashuv va yo'nalishlarini tadqiq qilish, chakana savdo ko'rsatkichlarini doimiy tahlil va monitoring qilib borish, uning innovatsion omillarning ijobiy ta'sirini hisobga olish, jahonda amalga oshirilgan onlayn tendensiyalarning ta'sirini baholab borish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-dekabrda "O'zbekiston Respublikasida chakana savdo qoidalariga qo'shimcha kiritish to'g'risida"gi 683-son qarori. Manba: <https://lex.uz/en/docs/6707335>.
2. Леви М., Вейтц Б.А. Основы розничной торговли. / Пер. с англ. под ред. Ю.Н.Каптуревского. - СПб: Издательство "Питер", 1999. – с. 19.
3. Белецкий М.Д. Основные направления развития Российского ритейла в новых экономических условиях. // Дискуссия. –2016. –№6. – С. 22-29.
4. Lee W.L., Liu C.H., Tseng T.W. The multiple effects of service innovation and quality on transitional and electronic word-of-mouth in predicting customer behavior. // J. Retailing Consum. Serv., 64 (2022), Article, 102791.
5. Shankar V., Jeffrey J., Mantrala M., Kelley E., Rizley R.. Innovations in shopper marketing: current insights and future research issues. // J. Retailing, 87, (1) (2011), pp. 29-42.
6. Розничная торговля продовольственными товарами. Товароведение и технология: учебник для нач. проф. Образования. / [Т.С.Голубкина, Н.С.Никифорова, А.М.Новикова, С.А.Прокофьева]. – 5-е изд., стер. – М.: Издательский центр "Академия", 2013. – с. 5.
7. Sultanova N.U. Raqamli iqtisodiyot sharoitida chakana savdo korxonalarida raqobatbardoshlik. // "Raqamli iqtisodiyot" ilmiy-elektron jurnali, 2-son. – 34-b.
8. O'rinov Y.M. Chakana savdo korxonalarida xizmatlar turlari va ularning tasnifi. // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" (Economics and Innovative Technologies) ilmiy-elektron jurnali, 5.2022, sentabr-oktabr (No00061). – 366-b.
9. <https://stat.uz/uz>.
10. <https://efsol.ru>.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

